



## **KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TAHLILI.**

**Azizova Laylo Sadriyevna**

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

**Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti**

**Falsafa va milliy g'oya kafedrası katta o'qituvchisi**

**Xoliqulov Muhammad Qaxor o'g'li**

**Falsafa yo'nalishi 2-bosqich magistranti**

**Annotatsiya:** ushbu maqolamizda buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida komil inson haqidagi qarashlarining kelib chiqishi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek allomaning butun bir inson jamiyatining tub ma'nosi undagi komil inson mohiyati qisqacha yoritib beriladi.

**Kalit so'zlr:** Ibn Sino, komil inson, inson kamoli, donishmandlik amaliyoti, Donishnoma, qanoat, ziyraklik, mo'tadillik, ilm, ziyrakli, axloq.

Nafaqat Sharq va Yevropada balki butun dunyoga ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligi tufayli, "Shayx-Ur Rais" Sharqda "Olimlar boshlig'i", Yevropada "Olimlar podshosi" nomi bilan shuhrat qozongan mashhur allomalardan biri o'rta asr buyuk donishmandi Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino ham boshqa tengdosh zamondosh qomusiy olimlar qatori matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, ta'lim – tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoga mashhur yirik asarlar meros qoldirgan olim, eng ajablanarlisi shuncha vaqt o'tganiga qaramasdan uning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar hali-hanuz o'zining salmog'ini, muhimligini va dolzarbligini yo'qotmagan. Bunga sabab esa uning ilmiy va falsafiy qarashlarida ilgari surilgan g'oyalarning keng qo'llanilmaganligi, hamda uning o'rganilish jabhasi haligacha tor doirada qolib ketayotganligi bilan ham bo'g'liqdir.

Ibn Sino insonning kamolga yetishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Ilmiy tadqiqotchilar uning falsafiy asarlaridan axloqqa oid fikr yuritganlari o'n ikkita deb qayd etadilar, shu o'rinda takidlash joizki bizgacha yetib kelganlari ichida xalos.

Ibn Sino axloqqa oid asarlari ichida eng mashxurlaridan biri bu "Amaliy hikmat"



(Donishmandlik amaliyoti) deb ataydi. Olimning fikricha, axloq fani kishilarning o'ziga va boshqalarga nisabatan xatti - harakati me'yorlari, mezonlari, yo'l-yo'riqlarini, hamda qoidalarini o'rganadi.

Ibn Sino axloqlilikning asosini ikki qarama qarshilik yaxshilik va yomonlik kabi tushunchalar bilan ta'riflaydi:

“Dunyoda mavjud bo'lgan jami narsalar tabiatiga ko'ra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilishning o'zi esa mohiyat e'tibori bilan yaxshilikdir...”<sup>1</sup>

Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini ham tahlil etadi va har biriga ta'rif beradi, masalan: adolatni ruhiy lazzatning bosh mezoni hisoblaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega bo'ladi, yomon illatlardan o'zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim. Insondagi ijobiy, axloqiy hislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi – muhabbat, mo'tadillik, aqlilik, ehtiyotkorlik, qat'iyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi.

Qanoat va mo'tadillikni insonning hissiy quvvatiga kiritadi, chidamlilik, aqllilikni g'azab quvvatiga, donolik, ehtiyotkorlikni ziyraklikka, sadoqat, uyatchanlik ijrochilik, achinish, sofdillikni tafovut quvvatiga kiritadi.

Mutafakkir qanoatni hissiy fazilatlardan biri hisoblaydi va inson o'zini ta'magirlikdan tiysa, mo'tadillikka rioya qilsa, o'zida xirsning namoyon bo'lishini yengadi, inson yomon ilatlarni yengishda esa o'z imkoniyatlarini ongli sarf etishi lozim, deydi.

Ibn Sino har bir axloqiy hislatning ta'rifini beradi:

mo'tadillik – tan uchun zaruriy oziq va xulq ma'yorlariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik;

sahiylik – yordamga muxtoj kishilarga ko'maklashuvchi insoniy quvvat;

g'azab – biror ishni bajarishda jasurlik; chidamlilik – inson o'z boshiga tushgan yomonliklarga bardosh beruvchi quvvat;

aqillilik – biror ishni bajarishda shoshma – shosharlikdan saqlovchi quvvat deydi<sup>2</sup>.

Ziyraklikni narsalar va hatto harakatlarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat, achinish, kishilar baxtsizlik, azob – uqibatga duchor

<sup>1</sup> Najmiddin Komilov “Tasavvuf”, T.: Movorounnahr-O'zbekiston nashriyoti”. 2009-yil. 141-bet.

<sup>2</sup> Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari – Toshkent, Universitet, 1998-yil. 42-bet.





bo'lganda, ular bilan xushmuomalada bo'luvchi insoniy quvvat; kamtarlikka xudbin ishlar bilan shug'ullanishdan to'xtatuvchi kuch sifatida ta'rif beradi.

Ibn Sino insonning kamolga yetishida to'siqlik qiluvchi nuqsonlar sifatida johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni ko'rsatib o'tadi. Johillikni – ilmga, nodonlikni – zehni o'tkirlikka, shafqatsizlik, takabburlikni adolatga, nafratni – sevgi-muhabbatga qarama-qarshi sifatlar deya ta'riflaydi.

Ma'lumki, Ibn Sino ham boshqa mutafakkir olimlar singari o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq holda ifodalagan, maxsus risolalarda talqin etgan. Shuningdek, fanlarni tasnif etadi. Bunda u birinchi o'ringa tibbiyot fanlarini qo'yadi. Falsafani esa ikki guruhga, ya'ni nazariy va amaliy guruhlarga bo'ladi. Nazariy guruh kishilarni o'zidan tashqaridagi borliq holati haqidagi bilimlarni egallashga yo'llasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nimalar qilishimiz kerakligini o'rgatadi deydi.

U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o'rganuvchi barcha fanlarni kiritadi.

Ibn Sino ko'pgina masalalarni materialistik hal qilsa ham, falsafaning asosiy masalalarida idealistik pozisiyada turadi. Lekin shunga qaramay, u o'ziga ma'lum bo'lgan barcha bilimlarni to'la-to'kis egallaydi, ko'p masalalarni dadillik bilan mustaqil va original hal yetishga intiladi va o'zi kirishgan yo'lga sodiq qolib, unga so'z va qalami bilan xizmat qiladi; mo'l-ko'l yutuq va g'alabalarga erishadi.

Ibn Sino fikricha, fan insoniyatga xizmat qilishi, olimlar tabiat qonunlarini ochib, avloddan avlodga etkazishlari kerak. Chunki, Ibn Sino merosining asosiy qimmat va qudrati uning keng va kuchli gumanistik mazmunidir. U o'z ilmi, merosi bilan o'rta asr Sharqining ilmiy madaniy qudratini butun dunyoga namoyon qildi. Butun insoniyat madaniyatining rivojiga ulkan hissa qo'shdi.

Shuning uchun ham Ibn Sino jahon madaniyatining buyuk siymosi, insoniyat uchun hurmat qilgan olim, buyuk tabib, eng katta faylasuf, tabiatshunos, insonshunos, mashhur ensiklopedist sifatida tan olindi.

Demak, ibn Sinoning shaxsiy faoliyati dunyoviy ilmlarni o'rganish haqidagi ta'limotlari, ta'lim-tarbiya haqidagi mulohazalari, umuminsoniy pedagogik fikr taraqqiyotida o'ziga xos o'rinni egallaydi. Ibn Sinoning "Donishnoma", asarida tarbiyaning



barcha shakllariga oid qarashlari mavjud. Bu qarashlar yuz yillar davomida avlodlar uchun tarbiyalash maktabi bo'lib kelmoqda.

Abu ali ibn Sino kamolotga yetishishning birinchi mezonini sanalgan ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak. Bu maqsadga yetishish uchun inson qiyinchiliklardan qo'rqmasligi zarur, deydi. "Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir" deydi<sup>3</sup>.

Zero, ma'rifatli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi, deydi u fikrini davom ettirib.

Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo'lmagan kishilar qatoriga qo'shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta'kidlaydi. Bunga sabab esa mutafakkirning hayotida uchragan bo'hronlar sababli desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Sababi esa uni allohga shak keltirishda ayblaydilar, chunki uning borliq haqidagi qarashlariga oiddir.

U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo'lish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o'z bilimining haqiqiylikini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini qayta-qayta takidlaydi.

Ibn Sino ta'limotida komil insonni tarbiyalashda bilim berish ya'ni ilm egallashga juda katta urg'u bergan. Shuning bilan komil insonni tarbiyalab borish mumkinligiga ishongan. Ibn Sino bilishda qaysi metodlardan foydalanilmasin – u og'zaki ifodami, bilimlarni tushuntirishmi, turli ko'rinishdagi suhbatmi, tajribalarni, baribir insonda haqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tadbiq eta olish qobiliyatini shakllantirish asosiy maqsad bo'lgan.

Demak, "Donishnoma" falsafa ilmiga bag'ishlangani bilan ham komil inson tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Shuningdek, insondagi yomon illatlarni ham bartaraf etishda ilmu-fan, ziyoning ahamiyati, insondagi aql – tafakkur quvvatining yomon illatlardan qutilishi, o'zligini anglash vositasi ekanligi bilan adabiy-falsafiy asarigina bo'lib qolmay, tarbiyaviy asar sifatida ham qimmatlidir.

<sup>3</sup> Nasafiy A. Komil insonlar. // N. Komilov tarjimasi. - T.: Turkiston nashryoti. 2000-yil 1-avgust. №32.





Ibn Sino yuksak axloqiy xislatlarga yana kishilarning bir-birlariga do'st bo'lib yashashi, hamkorlik qilishini ham kiritadi. Chunki har bir kishi jamiyatda, odamlar bilan birga yashar ekan, ular bilan do'stona yashashga intiladi.

Modomiki, inson aloqaga muhtoj ekan, boshqa birov bilan qo'shinchilik qilish uchun uning uyi yoniga uy soladi, o'zining ehtiyojini qondirish uchun esa ishlab chiqarish mahsulotlarini almashtiradi, dushmanlardan saqlanish uchun o'zgalar bilan birlashadi. Yuqorida sanab o'tilgan omillarga tayanadigan bo'lsak Ibn Sino jamiyatning negiziga avvalo ma'naviy ehtiyojlarni qondirish asosida birlashganini alohida takidlaydi. Mana shu tariqa kishilarda birlik hissi, boshqalarga nisbatan sevgi-muhabbat va umumiy axloqiy negizlar ishlab chiqila boshlaydi. U insonda yaxshi xulqning shakllanishida xushxulq, ilmiy do'st muhim rol o'ynaydi, deydi.

Olim oilada ota-onaning vazifasi va burchiga katta e'tibor beradi. Oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatishi borasida muhim fikrlar bayon etadi. Insonning xulqi va ruhiga mehnatning ijobiy ta'sirini ta'kidlash bilan bir qatorda turli kasb egalari: hunarmand, dehqonlar mehnatini ulug'laydi va qimorboz, sudho'r kabilarni qoralaydi. U mehnatsiz hayot kechirish insonga ham jismoniy ham ruhiy tomondan salbiy ta'sir korsatishini talqin etadi.

Biz bilgan hikmatini alohida yodga olish joizdir: "Bolaga ham hali u tug'ilmasdan turib g'amxo'rlik qilish, go'daklik davridan boshlab tarbiyani boshlash zarurligini ta'kidlaydi. Bolaning yetuk inson bo'lib shakllanishida unga g'amxo'rlik, poklik, mas'uliyatni his yetish, do'stona munosabatlar tuyg'usini singdirib borish zarur"<sup>4</sup>, deydi olim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Ibn Sinoning "Donishnoma" asarida ilgari surilgan g'oyalarni bugungi kun uchun muhim dasturamal desak hech adashmaymiz, chunki bu asarda yuqorida sannab o'tilgan ta'lim va tarbiyaga oid qarashlarini yanada umumlashtirsak va uni ta'lim muasasalarida darslarda o'quvchilar ongiga singdirish hamda Abu Ali ibn Sinoning asarida keltirilgan tarbiyaviy qarashlar yosh avlod shaxsining jismoniy, ruhiy,

<sup>4</sup> Rasoilu Hukamo, O'zFASHI kitob fondi, inv. N- 2385.



ichki dunyosini rivojlantirish, binobarin, yangi ijtimoiy munosabatlarni barpo qilish imkoniyatini beradi, pirovard natijada bu yangi ijtimoiy-siyosiy muhit, milliy mafkuraning ajralmas qismi sifatida ijtimoiy ongni shakllantirishni ta'minlaydi. Bu esa jamiyatimizda har tomonlama barkamol, sog'lom, dunyoqarashi teran shaxslarning shakllanish jarayonini tezlashtiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Najmiddin Komilov "Tasavvuf", T.: "Movorounnahr-O'zbekiston nashriyoti". 2009-yil.
2. Nasafiy A. Komil insonlar. // N. Komilov tarjimasi. - T.: Turkiston nashryoti. 2000-yil 1-avgust. №32.
3. Jumaboev I. O'zbekistonda falsafiy va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. – Toshkent, O'qituvchi, 1997.
4. Rasoilu hukamo, O'zFASHI kitob fondi, inv. N- 2385.
5. Uvatov. U. "Buyuk yurt allomalari". O'zbekiston nashryoti, Toshkent:, 2020-yil.
6. Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutaffakkirlari. – T.: O'zbekiston, 1971-yil.
7. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari – Toshkent, Universitet, 1998.